



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 11 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 11

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№11 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-11>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Азизов Абборжон Салиджанович</b> НАЛОГОВЫЙ МОНИТОРИНГ КАК АЛЬТЕРНАТИВНАЯ ФОРМА НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ И ОТЛИЧИЯ ОТ НАЛОГОВЫХ ПРОВЕРОК.....	5
<b>2. Norboyev Bobur Aliqul o‘g‘li</b> O‘ZBEKISTONDA YER KADASTRING HUDUDIY RIVOJLANISH TARIXI.....	13
<b>3. Каримов Темур Мамарахим ўғли</b> ЮРИДИК ИХТИСОСЛИК БЎЙИЧА ИШ СТАЖИНИНГ СУДЬЯЛИК ЛАВОЗИМИГА НОМЗОДЛАРГА ҚЎЙИЛГАН ТАЛАБЛАРДАН БИРИ СИФАТИДА.....	22
<b>4. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich</b> HUQUQNI MUXOFAZA QILUVCHI ORGANLARIDA KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH DASTURINI ISHLAB CHIQUISH VA UNI TASHKIL ETISH TARTIBI.....	30
<b>5. Nurumov Dilshodbek Djumabayevich</b> ADVOKATNING ISHONCH BILDIRUVCHI SHAXS (HIMOYA OSTIDAGI SHAXS) BILAN MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	40
<b>6. Сафаев Мансурбек Илхомжонович</b> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ БЎЙИЧА ХУҚУҚИЙ АСОСЛАР.....	48
<b>7. Зокиров Шерзод Илхом ўғли</b> ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИДА МУРОЖААТЛАР БИЛАН ИШЛАШ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИККА ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....	57
<b>8. Xudaykulov Feruzbek Xurramovich</b> JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH ALGORITMI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	65
<b>9. Мухитдинов Фахритдин Мухитдинович</b> МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ЖИНОЯТЧИЛИКНИНГ ПРЕВЕНТИВ ЖИХАТЛАРИ.....	76
<b>10. Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA OILAGA VA YOSHLARGA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING IJTIMOIIY XAVFLILIGI.....	90
<b>11. Файзуллаев Шавкат Файзуллаевич</b> ИШНИ СУДГА ҚАДАР ЮРИТИШДА ВИДЕОКОНФЕРЕНЦАЛОҚА РЕЖИМИНИ ҚЎЛЛАШ.....	99
<b>12. Nuratdinov Srajatdin Kamalatdinovich</b> XORIJ DAVLATLARINING OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA TAJRIBASI.....	109



**12.00.08-УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО**

**Xudaykulov Feruzbek Xurramovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrasini professori vazifasini bajaruvchisi,


yuridik fanlar doktori (DSc)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-4940-3762>

E-mail: [dr.profi114@gmail.com](mailto:dr.profi114@gmail.com)

**JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH ALGORITMI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

**For citation:** Khudaykulov Feruzbek Khurramovich. CRIME QUALIFICATION ALGORITHM: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17637236>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, induksiya, deduksiya, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda jinoyatlarni kvalifikatsiyalash algoritmgiga to'xtalishdan oldin, jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga bayon qilingan. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun quyidagi modiy va formal(yuridik) asoslar bo'lishi lozimligi bayon qilingan: sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat qonunchiligida jinoyat deb ko'rsatilgan va taqiqlangan bo'lishi; jinoyat qonunchiligida jinoyat deb ko'rsatilgan va taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishda shaxsning aybli (qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etganligi) bo'lishi; jinoyat JK Maxsus qismi muayyan normasida ana shunday qilmish uchun jazo yoki boshqacha ta'sir chorasining belgilanganligi. Mazkur maqolada jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat-huquqiy normalarni qo'llash haqida qaror qabul qilish mohiyatiga ko'ra ikki qism: jinoyatning mavjudligini haqida qaror qabul qilish; jinoyatning mavjud emasligi haqidagi qaror qabul qilishdan iborat ekanligi aytilgan. Shuningdek, jinoyat huquqi va qonuni normalarni qo'llash bosqichlari sifatida quyidagilarni haqiqiy faktik holatlarni aniqlash va tekshirish, jinoyat-huquqiy normani belgilash va ishning mohiyati bo'yicha qaror qabul qilishga ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqligi bayon qilingan. Ushbu maqolada jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilgan xatoliklar asosan jinoyat huquqi va qonuni normalarni qo'llash noto'g'ri qo'llanishi bilan bog'liqligi, bu esa o'z navbatida moddiy huquq (jinoyat-huquqiy) normalarni noto'g'ri qo'llashiga va jinoyat protsessual huquqi normalarni buzilishiga olib kelishi, shuningdek, bunday qonun buzulishlarga yo'l qo'ymaslik uchun jazoga sazovor muayyan jinoiy qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq qoidalarni bilish JKning qonuniylik, odillik, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplarini amalda to'g'ri qo'llanishiga olib kelishi aytilgan. Shu bilan birga, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ba'zi tipik xatolarga sud-tergov amaliyotidan amaliy misollar keltirilgan va bu xatolarni to'g'rishlashda jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyatlarni

kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslarida mavjud qoidalar asosida muallif tomonidan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi(ketma-ketligi)da kerak bo'ladigan formulalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqolada jinoyat huquqi doktrinasi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari va sudtergov amaliyotida shakllangan metodikasini o'rganish natijasi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish vakolatiga ega subyektlar uchun qulay bo'lishi maqsadida mualliflik jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmini shakllantirilgan. Xususan, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi 4 bosqichdan iborat ekanligi bayon qilingan. Shuningdek, jinoyat huquqi doktrinasi va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari bo'yicha jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi(ketma-ketligi)da jinoyat-huquqiy norma bo'yicha kvalifikatsiya qilish vazifasini bosqicha-bosqich hal etish uchun muallif tomonidan asoslangan tavsiyalarni ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, algoritm, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bosqichlari, jinoyat tarkibi, jinoyat obyektiv tomoni, obyekt, subyektiv tomon, subyekt, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda xato.

**Худайкулов Ферузбек Хуррамович,**

Исполняющий обязанности профессора кафедры Уголовное право,  
криминологии и противодействия коррупции Ташкентского  
государственного юридического университета,

Доктор юридических наук (DSc)

ORCID:<https://orcid.org/0000-0002-4940-3762>

E-mail: dr.profi114@gmail.com

## АЛГОРИТМ КВАЛИФИКАЦИИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье были широко использованы такие методы исследования как логический, системный, сравнительно-правовой. В частности, прежде чем перейти к алгоритму квалификации преступлений, излагается понятие квалификации преступления и ее особенности. Указывается, что для привлечения лица к уголовной ответственности должны быть следующие материальные и формальные (юридические) основания: совершенное общественно опасное деяние должно быть указано в уголовном законодательстве как преступление и запрещено; лицо должно быть виновно (действовать умышленно или по неосторожности) в совершении общественно опасного деяния, указанного в уголовном законодательстве как преступление и запрещенного; в соответствующей норме Особенной части Уголовного кодекса за такое деяние должно быть установлено наказание или иная мера воздействия. В данной статье говорится, что принятие решения о применении уголовно-правовых норм при квалификации преступлений по своей сути состоит из двух частей: принятие решения о наличии преступления; принятие решения об отсутствии преступления. Также в качестве этапов применения норм уголовного права и закона целесообразно выделить следующие: выявление и проверка фактических обстоятельств, определение уголовно-правовой нормы и принятие решения по существу дела. В данной статье говорится, что ошибки, допущенные при квалификации преступлений, в основном связаны с неправильным применением норм уголовного права и закона, что, в свою очередь, приводит к неправильному применению норм материального права (уголовно-правовых) и нарушению норм уголовно-процессуального права, а также, чтобы предотвратить такие нарушения закона, знание правил, связанных с правильной квалификацией конкретного преступного деяния, подлежащего наказанию, приводит к правильному применению на практике таких принципов УК, как законность, справедливость, ответственность за вину и неотвратимость ответственности. Вместе с тем, приведены практические примеры из судебно-следственной практики некоторых типичных ошибок при квалификации преступлений, и для исправления этих ошибок автором разработаны необходимые формулы в алгоритме (последовательности) квалификации преступлений на основе правил, имеющих в теории уголовного права и

теоретических основах квалификации преступлений. В данной статье сформулирован алгоритм квалификации авторских преступлений с целью удобства субъектов, уполномоченных на квалификацию преступлений, в результате изучения доктрины уголовного права, теоретических основ квалификации преступлений и методики, сформированной в судебно-следственной практике. В частности, утверждается, что алгоритм квалификации преступлений состоит из 4 этапов. Также в алгоритме (последовательности) квалификации преступлений по доктрине уголовного права и теоретическим основам квалификации преступлений выдвинуты обоснованные автором рекомендации по поэтапному решению задачи квалификации по уголовно-правовой норме.

**Ключевые слова:** квалификация преступлений, алгоритм, этапы квалификации преступлений, состав преступления, объективная сторона преступления, объект, субъективная сторона, субъект, ошибка в квалификации преступлений.

**Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,**

Acting Professor of the Department of Criminal Law, Criminology  
and Anti-Corruption of Tashkent State University of Law,

Doctor of Science in Law

ORCID:<https://orcid.org/0000-0002-4940-3762>

E-mail: dr.profi114@gmail.com

## CRIME QUALIFICATION ALGORITHM: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS

### ANNOTATION

This article extensively uses logical, inductive, deductive, systematic, logical-legal, and comparative-legal methods. This article extensively uses logical, inductive, deductive, systematic, logical-legal, and comparative-legal research methods. In particular, before dwelling on the algorithm for qualifying crimes, the concept of crime qualification and its specific features are described. It is stated that the following material and formal (legal) grounds must exist for bringing a person to criminal responsibility: the socially dangerous act committed must be specified and prohibited as a crime in criminal legislation; the person must be guilty (intentional or negligent) of committing a socially dangerous act specified and prohibited as a crime in criminal legislation; punishment or other measure of influence for such an act must be established in a specific norm of the Special Part of the Criminal Code. In this article, it is stated that making a decision on the application of criminal law norms in the qualification of crimes consists of two parts: making a decision on the existence of a crime; making a decision on the absence of a crime. It is also stated that it is advisable to distinguish the following as stages of application of the norms of criminal law and legislation: identification and verification of real factual circumstances, establishing a criminal law norm, and making a decision on the merits of the case. In this article, it is stated that the errors made in the qualification of crimes are mainly related to the incorrect application of the norms of criminal law and legislation, which, in turn, leads to the incorrect application of the norms of substantive law (criminal law) and violation of the norms of criminal procedural law, and also, in order to prevent such violations of legislation, knowledge of the rules related to the correct qualification of a specific criminal act punishable by punishment leads to the correct application in practice of the principles of legality, justice, responsibility for guilt, and the inevitability of responsibility of the Criminal Code. At the same time, practical examples of some typical errors in the qualification of crimes are given from judicial and investigative practice, and to correct these errors, based on the rules existing in the theory of criminal law and the theoretical foundations of the qualification of crimes, the author has developed the necessary formulas in the algorithm (sequence) of the qualification of crimes. In this article, based on the results of studying the doctrine of criminal law, the theoretical foundations of the qualification of crimes, and the methodology formed in judicial and investigative practice, an algorithm for the qualification of copyrighted crimes has been formed in order to make it convenient for subjects authorized to qualify crimes. In particular, it is stated that the algorithm for qualifying crimes consists

of 4 stages. Also, in the algorithm (sequence) for qualifying crimes according to the doctrine of criminal law and the theoretical foundations of the qualification of crimes, the author put forward substantiated recommendations for the phased solution of the task of qualification according to the criminal law norm.

**Keywords:** crime qualification, algorithm, stages of crime qualification, corpus delicti (crime composition), objective side of the crime, object, subjective side, subject, error in the qualification of crimes.

Jinoyatlarni kvalifikatsiyalash algoritmiga to'xtalishdan oldin, jinoyatni kvalifikatsiya qilish tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kvalifikatsiya atamasi lotincha so'zidan olingan bo'lib, "qualitas – sifat" va "facio – qilaman" degan ma'nolarni anglatadi. Kvalifikatsiya atamasi oldindan belgilangan mezon(kriteriya)lar, ya'ni aniq belgilarga mos keluvchi shaxslarning faoliyatiga baho berishni anglatadi. Kvalifikatsiya shaxsning ijobiy sifatlarini emas, balki sodir etilgan jinoiy qilmishning og'irligi va tashqi ko'rinishini belgilaydi [1, B. 8, 158-161].

Jinoyat huquqi nazariyasida bir guruh olimlar "Jinoyatni kvalifikatsiya qilish – JK Maxsus qismining muayyan normasida nazarda tutilgan, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini jinoyat tarkibi belgilariga solishtirib, ularning mosligini aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlash hamda sodir etilgan jinoyat huquqi normasida butunlay barcha belgilari nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishga jinoiy-huquqiy baho berishdir" [2, B. 227-230, 60, 7] deb ta'rif berishadi.

Boshcha bir guruh olimlarning fikricha, "jinoyatni kvalifikatsiya qilish – JK Umumiy va Maxsus qismlarining muayyan normasida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini sodir etilgan jinoyat tarkibi belgilariga solishtirib, ularning mosligini aniqlashdir [3, B. 104-105, 22, 132]."

Jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslarida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish deganda, "shaxsning qilmishlarida u yoki bu jinoyat tarkibining minimal va yetarli belgilarini aniqlash va ular orqali jinoyat belgilarini aniqlash jarayoni" [4, B. 96-99, 5]. tushuniladi. Bu esa aniq bir vazifani mavjud faktik holatlar va vaziyatlarda yechishning aqliy jarayonini o'z ichiga oladi.

Jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslarida jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda muayyan harakatlar ketma-ketligi shakllanib bo'lgan. Ushbu jarayon jinoyat tarkibining barcha belgilarining muayyan ketma-ketlikdagi tavsifini – obyektiv tomon, obyekt, subyektiv tomon va subyektini aniqlash hamda tavsiflashni o'z ichiga oladi [5, B. 223].

Ma'lumki, yuqorida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi to'rtta elementidan bittasining mavjud emasligi shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun asosning mavjud emasligini bildiradi. Masalan, jinoyat obyekt yoki subyektiv tomonning mavjud emasligi jinoyat tarkibi to'rtta elementidan bittasining mavjud emasligini, bu jinoyat tarkibi mavjud emasligini, bu esa jinoyat uchun javobgarlikning asosi mavjud emasligini anglatadi. Xususan, Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlarini mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi (JK 16-moddasi 2-qismi).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jinoiy javobgarlikka tortishning ikkita, ya'ni moddiy va formal(yuridik) asoslari mavjud bo'lib, muayyan faktik holatlar bilan tavsiflangan jinoiy qilmish(jinoyat tarkibi elementlarini tavsiflovchi belgilar)ni sodir etilganligi jinoiy javobgarlikka tortishning faktik asosi bo'lsa, formal(yuridik) asosi esa – elementlarni tavsiflovchi belgilardan iborat JK Maxsus qismi muayyan normasida ifodalangan jinoyat tarkibining mavjudligini hisoblanadi.

Jinoyat huquqi nazariyasidan ma'lumki, belgilar jinoyat tarkibi elementlarini tavsiflaydi, jinoyat tarkibi elementlari va belgilari esa aynan jinoyatning zaruriy belgilarini ifodalaydi. Ma'lumki, jinoyatning moddiy(ijtimoiy xavflilik, ayblilik) va formal(huquqqa xiloflik va jazoga sazovorlik) kabi belgilari mavjud.

JK Maxsus qismida jinoyatlarning qat'iy ro'yxati berilgan. Aynan jinoyat qonunchiligida ta'qiqlangan jinoyat tarkibi to'rtta (obyekt, obyektiv tomon, subyektiv tomon va subyekt) elementlarini o'zida aks ettirgan jinoiy qilmishni sodir etganlik uchun shaxs JK Maxsus qismi

muayyan moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun quyidagi modiy va formal(yuridik) asoslar bo‘lishi lozim:

– sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoiyat qonunchiligida jinoiyat deb ko‘rsatilgan va taqiqlangan bo‘lishi;

– jinoiyat qonunchiligida jinoiyat deb ko‘rsatilgan va taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etishda shaxsning aybli (qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etganligi) bo‘lishi;

– jinoiyat JK Maxsus qismi muayyan normasida ana shunday qilmish uchun jazo yoki boshqacha ta’sir chorasining belgilanganligi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, jinoiyat tarkibi to‘rtta elementidan bittasini mavjud emasligi yoki jinoiyat tarkibi “minimal” va “etarli” yig‘indisidan iborat alomat, belgilarning mavjud emasligi jinoiy javobgarlikka tortish uchun asosning mavjud emasligini o‘z vaqtida anglab yetish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari ishini sezilarli darajada yengillashtiradi va jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilishda ma’lum bir xatolarga yo‘l qo‘ymaslik imkonini beradi.

**Jinoiyat huquqi va qonuni normalarini qo‘llash tushunchasi va bosqichlari.** Jinoiyat huquqi nazariyasi, jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari va jinoiyat qonunchiligidan ma’lumki, sodir etilgan qilmishning jinoiy, uning jazoga sazovorligi va boshqa jinoiyat-huquqiy oqibatlari faqat Jinoiyat kodeksi bilan belgilanadi. JK Umumiy qism 4-moddasiga ko‘ra, sodir etilgan qilmishning jinoiyliigi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoiyat kodeksi bilan belgilanadi. Hech kim sudning hukmi bo‘lmay turib jinoiyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishda jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoiyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi.

Ma’lumki, jinoiyat huquqida jinoiyatlarni analogiya asosida aniqlashga va jazolashga yo‘l qo‘yilmaydi. Bu qoida MDHning ko‘plab davlatlarning jinoiyat qonunchiligida o‘z aksini topgan.

Jumladan, M.X.Rustambaev “Analogiya deganda, jinoiyat huquqida, jinoiyat qonunida to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilmagan holatlarga, u yoki bu belgilariga ko‘ra o‘xshash qonunni qo‘llash tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining jinoiyat huquqida jinoiyatni analogiya asosida aniqlashga va jazolashga yo‘l qo‘yilmaydi. Analogiya bo‘yicha qonunni qo‘llash qonuniylikni buzish, jinoiyat sodir qilmagan shaxslarni asossiz repressiya qilishga olib kelgan bo‘lardir. Milliy jinoiyat qonunchiligida analogiyani qo‘lashdan voz kechish uning rivojlanishidagi muhim etaplardan biri hisoblanadi.” [6, B. 104-105], deb ta’kidlaydi.

M.Usmonaliev va P.Bakunovlar fikricha, “Qonunda qonuniylik prinsipining belgilanishi ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan shaxsni analogiya bo‘yicha javobgar qilishni istisno qiladi... Amaldagi jinoiyat qonunida analogiyadan foydalanib javobgarlikka tortish qat’iyan man qilinadi... Odil sudlov organlari o‘z ixtiyorlari yoki xohishlariga ko‘ra agar qilmishlarda jinoiyat tarkibi bo‘lmasa, shaxsni jinoiy javobgarlikka torta olmaydilar. Analogiya bo‘yicha jinoiy javobgarlikka tortish mumkin emas” [7, B. 21, 99, 102].

Jinoiyat huquqi va qonuni normalarini qo‘llash JKning ham Umumiy qism, ham Maxsus qismi normalari doirasini qamrab oladi.

Jinoiyat huquqi nazariyasi va jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslariga oid ilmiy adabiyotlarda “jinoiyat huquqi normalarini qo‘llash” atamasi ko‘pincha “jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilish” ma’nosida qo‘llaniladi [8, B. 65].

Sud-tergov amaliyotida jinoiyat huquqi va qonuni normalarini qo‘llash jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Jinoiyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoiyat-huquqiy normalarni qo‘llash haqida qaror qabul qilish mohiyatiga ko‘ra ikki qismdan iborat bo‘ladi:

1. Jinoiyatning mavjudligini haqida qaror qabul qilish;
2. Jinoiyatning mavjud emasligi haqidagi qaror qabul qilish [8, B. 77].

Ma’lumki, jinoiyat huquqi va qonuni normalarini qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, mazkur xatoliklar jinoiyat-protessual huquqi vositalarida bartaraf etiladi.

Jinoiyat huquqi va qonuni normalarini qo‘llash bosqichlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir:

- “1) haqiqiy faktik holatlarni aniqlash va tekshirish;

- 2) jinoyat-huquqiy normani belgilash;
- 3) ishning mohiyati bo'yicha qaror qabul qilish" [8, B. 81].

**Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda xato.** Sud-tergov amaliyotida jinoyat huquqi va qonuni normalarini qo'llash faoliyatidan iborat bo'lgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ko'plab xatoliklar uchray turadi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilgan xatolar shikoyatlarga, u bo'yicha qabul qilingan qarorlarning bekor bo'lishiga va jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini buzilishiga sabab bo'ladi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda yo'l qo'yilgan xatoliklar asosan jinoyat huquqi va qonuni normalarini qo'llash noto'g'ri qo'llanishi bilan bog'lib bo'lib, bu esa o'z navbatida moddiy huquq (jinoyat-huquqiy) normalarni noto'g'ri qo'llashiga va jinoyat protsessual huquqi normalarini buzilishiga olib keladi. Bunday qonun buzulishlarga yo'l qo'yimaslik uchun jazoga sazovor muayyan jinoyat qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq qoidalarni bilish JKning qonuniylik, odillik, ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi kabi prinsiplarini amalda to'g'ri qo'llanishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan ushbu sohadagi ba'zi tipik xatolarga misollar keltirib o'tamiz:

**Birinchisi,** o'zganing mol-mulkini talon-toraj qilishning shakllaridan bo'lgan o'g'rilikda mulkchilik shaklidan qat'i nazar yuridik shaxs, ya'ni korxonaga, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlashda basharti talon-toraj qilingan mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasa, bunday talon-toraj oz miqdordagi talon-toraj qilish deb hisoblanadi. Shaxs bunday oz miqdordagi talon-toraj qilishdan iborat bo'lgan o'g'rilik uchun ma'muriy javobgarlikka tortiladi (MJtK 61-modda. Oz miqdorda talon-toraj qilish). Jismoniy shaxsning mulkini o'g'irlanganda mol-mulk miqdori qanchagacha bo'lsa kam ahamiyatli qilmish bo'lishi va qanda miqdordan oshsa jinoyat bo'lishi jinoyat qonunchiligi va Oliy sud Plenum qarorlarida aniq qilib belgilanmagan. Sud-tergov amaliyotida ushbu masala asosan eng kam bazaviy hisoblash miqdoridan kelib chiqib belgilanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'g'irlangan mol-mulkning qiymati to'g'risida shubha tug'ilgan taqdirda tovarshunoslik ekspertizasi tayinlanadi va o'tkaziladi. Ushbu ekspertizaning asosiy masalasi talon-toraj sodir etilgan paytda tekshirish uchun taqdim etilgan mol-mulkning qoldiq qiymatini aniqlashdan iborat.

**Ikkinchisi,** o'z ijtimoiy xavfli harakatlarining sababiy bog'lanishining rivojlanishini baholashda xatoga yo'l qo'ygan aybdor shaxsning harakatlarini baholashdagi qiyinchiliklar.

Jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslarida mavjud umumiy qoidaga ko'ra shaxs jinoyat qilmishi tufayli o'zi istagan ijtimoiy xavfli oqibat yuzaga kelmadi, o'sha jinoyatning xususiyatlari va ijtimoiy xavfliligi darajasini belgilovchi obyektiv belgilariga tegishli holatlarni noto'g'ri tasavvur qilishi oqibatida faktik xatoga yo'l qo'yib o'z harakatlarini davob ettirsa, shaxsning sababiy bog'lanish zanjiri rivojlanishdagi subyektiv faktik xatosi sodir etilgan jinoyatning kvalifikatsiyasiga ta'sir qilmaydi. Biz uni quyidagi mantiqiy matematik formula algoritmi(ketma-ketlik)da ifodalashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

$A+B+C=J$  – Jinoyatlar kvalifikatsiya bir xil emas  $-A+B+C(D)=J$ .

**A**-ijtimoiy xavfli qilmish; **B**-sababiy bog'lanish zanjiri rivojlanishi; **C**-jinoyat oqibat; **D**-faktik xato; **J**-jinoyat

**Keys 1.** K.ning eri tomonidan qilingan navbatdagi oilaviy janjallardan birida K. erini peshonasiga ikki marta boltaning dastasi bilan uradi. Buning natijasida jabrlanuvchi voqea joyida vafot etadi. K. erini u xali o'lmadi deb o'ylaydi va uni qiynalib o'lishini istab, uning tanasiga 22 marotaba oshxonaga pichog'ini tiqib oladi. Bu vaziyatda K. sababiy bog'lanish zanjiri rivojlanishi haqida noto'g'ri tasavvurga boradi. K. erining o'limi 22 marotaba oshxonaga pichog'ini urishi natijasida yuzaga keldi, deb o'ylaydi, aslida esa erining o'limi K. uning peshonasiga ikki marta boltaning dastasi bilan urishi natijasida kelib chiqqan edi. Biroq, o'lim aynan aybdorning ushbu ijtimoiy xavfli oqibatni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlari natijasida yuzaga kelganligi sababli, K. tomonidan sodir etilgan qilmish o'ta shafqatsizlik bilan qasddan odam o'ldirish emas, balki asosli ravishda qasddan odam o'ldirish (oddiy odam o'ldirish) deb kvalifikatsiya qilinadi. Sud tomonidan K. qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etganlikda aybli deb topiladi [9].

**Uchinchisi,** qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lish holatlarini noto'g'ri kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq xatoliklar.

Agar shaxsning qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida boshqa ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergan va shunday qilmishni qonun qattiqroq javobgarlik bilan bog'lagan bo'lsa, bunday jinoyat qasddan sodir etilgan deb topiladi (JK 23-moddasi). Bu murakkab aybli jinoyat bo'lib, muayyan holatlarda shaxs tomonidan qasddan jinoyat sodir etishi natijasida ehtiyotsizlik orqasida jabrlanuvchining o'limi kelib chiqadi. Qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lishda aybdor shaxsning qasdi jabrlanuvchini o'ldirishga qaratilmagan bo'ladi. Shuningdek, aybdor tomonidan berilgan zarbalar o'z-o'zidan badanga og'ir shikast yetkazmagan va jabrlanuvchining o'limiga bevosita sabab bo'lmagan holat ham bo'lishi mumkin. Masalan, aybdor shaxs jabrlanuvchiga zarbalar bergan va jabrlanuvchi yiqilib tushgan jarohatdan vafot etgan bo'lsa.

Biz uni quyidagi mantiqiy matematik formula algoritmi(ketma-ketlik)da ifodalashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

$A+B+C=J$  – Jinoyatlar kvalifikatsiya bir xil emas –  $A+B+C(D)=J_1$ .

**A**-qasddan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish; **B**-sababiy bog'lanish zanjiri rivojlanishi; **C**-jinoiy oqibat; **D**-ehtiyotsizlik orqasida; **J**-murakkab aybli jinoyat; **J<sub>1</sub>**-murakkab aybli jinoyat.

$A+B+C(D)=J$  – Jinoyatlar kvalifikatsiya bir xil emas –  $A(A_1)+B+C(D)=J_2$

**A**-qasddan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish; **A<sub>1</sub>**-qasddan badanga o'rtacha og'ir yoki yengil shikast yetkazish; **B**-sababiy bog'lanish zanjiri rivojlanishi; **C**-jinoiy oqibat; **D**-ehtiyotsizlik orqasida; **J**-murakkab aybli jinoyat; **J<sub>2</sub>**-ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat.

**Keys 2.** A. qasddan badanga og'ir shikast yetkazish jabrlanuvchining o'limiga sabab bo'lish holati bo'yicha sud tomonidan aybli deb topishladi. A. va B.lar o'rtasida o'zaro janjal kelib chiqadi va ushbu o'zaro janjalda A. B.ning peshonasi, ko'kragi va jag'iga uch marta musht bilan bilan uradi. Natijada B. boshi bilan yerga yiqilib, orqa bosh miya jarohatini oladi va shu kuni kechqurun vafot etadi. Sud-tergov materiallardan A. qasddan B.ning badanga og'ir shikast yetkazish niyati yo'qligi va A. xulq-atvori qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligiga ko'zi yetmasada, lekin ko'zi yetishi lozim va mumkinligi ma'lum bo'ladi. Sud-tibbiyot ekspertizasi xulosasiga ko'ra, A. tomonidan qasddan berilgan zarbalar B.ning badaniga og'ir shikast yetkazmagan va B.ning yerga boshi bilan yiqilishi natijasida olingan orqa bosh miya jarohati tufayli vafot etgan jabrlanuvchining o'limiga bevosita sabab bo'lmagan. Sud-tergov materialidan ma'lum bo'ladiki, A. va B.lar o'zaro tanish bo'lishmagan, o'zaro janjal mayda masala yuzasidan kelib chiqqan bo'lib, ushbu o'zaro janjalning kelib chiqishiga asosiy sabab jabrlanuvchi tomonidan qilingan hattiharakatlar bo'lgan. Guvohlarning ko'rsatuviga ko'ra, B. yerga boshi bilan yiqilib, orqa bosh miyasini yerga urib olganini va hushini yo'qotganini ko'rgan A. sodir etgan qilmishidan qo'rqib ketgan va jabrlanuvchiga yordam berishga uringan [10]. To'plangan dalillar asnosida sodir etilgan qilmish ehtiyotsizlik orqasida odam o'ldirish jinoyatiga qayta kvalifikatsiya qilingan.

**To'rtinchisi**, muayyan bir jinoyatni takroran sodir etilgan jinoyat deb kvalifikatsiya qilishdagi xatoliklar.

Bunday kvalifikatsiyaviy holatlar asosan jinoyat sodir etish joyi, vaqti, usuli bir vaqtda bir-biriga to'g'ri kelganda yuzaga keladi. Ana shunday holatlarda birinchi navbatda aybdor shaxsning qasdi sinchiklab tekshirilishi va aniqlanishi lozim. Shunday vaziyatlarda yagona qasd bo'lsa, sodir etilgan qilmish davobli jinoyat deb kvalifikatsiya qilinadi. Bunday holatlarga misol qilib, asosan o'g'rilik (dala hovlilar, garajlar, avtoturargohlar va h.k.larda) jinoyatini keltirish mumkin.

Biz uni quyidagi mantiqiy matematik formula algoritmi(ketma-ketlik)da ifodalashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

$Q(A+B+C)=J$  – Jinoyatlar kvalifikatsiya bir xil emas –  $X+S+Z=J_1$

**Q**-jinoiy qilmish; **A**-yagona qasd; **B**-joy; **C**- bir xil (turli) vaqtda; **D**-usul; **J**-jinoyat.

**X**-mustaqil(alohida) qasd; **C**- bir xil (turli) vaqtda; **Z**-turli(bir xildagi) obyekt; **J<sub>1</sub>**-takroran jinoyat.

**Qoida:** o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilishdan iborat o'g'rilik jinoyatidagi bir-biriga o'xshash bir necha jinoiy qilmishlarda asosan jinoyat sodir etish joyi, vaqti, usuli bir vaqtda bir-biriga to'g'ri kelsa, umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo'naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi bir-biriga o'xshash bir necha jinoiy qilmishlardan iborat bo'lgan **davomli o'g'rilik jinoyati** deb topiladi.

**Keys 3.** M. bitta avtoturargohda turgan yettita avtomoshina ichidagi o'zgalar mol-mulkini birin-ketin o'g'rilik yo'li bilan yashirin ravishda talon-toraj qilgan. Dastlabki oltita avtomoshina ichidan umumiy bahosi hisobda to'rt yuz ming so'mlik pullarni o'g'irlagan, oxirgi yettinchi avtomoshina ichidan esa besh ming ikki AQSh dollari miqdordagi pul va avtomagnitafon va uning monitorini yashirin ravishda talon-toraj qilgan paytda atrofda kuzatib turgan fuqarolar tomonidan qo'lga olinadi. Bitta avtoturargohda turgan yettita avtomoshina ichidagi yashirin ravishda o'g'irlangan o'zgalar mol-mulkini B. hali tasarruf etish(sotish)ga ulgurmasdan qo'lga tushadi. M. tomonidan yagona qasd bilan yashirin ravishda sodir etilgan o'g'rilik jinoyati ancha miqdorni tashkil qilgan va M. qonunga xilof ravishda o'g'irlagan o'zganing mol-mulklarini hali tasarruf etishga o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkaza olmagan. Sud B. tomonidan sodir etilgan o'zgalar mol-mulkini yashirin ravishda talon-torajdan iborat o'g'rilik jinoyatini takroran sodir etilgan o'g'rilik jinoyati sifatida kvalifikatsiya qiladi. Ammo quyi instansiya sudining hukmi bekor qilinib, yuqori turuvchi instansiya sudi B.ning qilmishini davomli o'g'rilik, ya'ni ancha miqdordagi o'g'rilik jinoyatiga suiqasd sifatida qayta kvalifikatsiya qiladi [11].

**Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi(ketma-ketligi).** Jinoyat huquqi doktrinasi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari va sud-tergov amaliyotida shakllangan metodikasini o'rganish natijasi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish vakolatiga ega subyektlar uchun qulay bo'lishi maqsadida quyidagi mualliflik jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmini shakllantirish mumkin. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi quyidagi 4 bosqichdan iborat bo'ladi:

**Birinchi bosqich:** jinoyat moddiy va formal(yuridik) belgilarini tavsiflaydigan jinoyat tarkibi obyektiv va subyektiv belgilarning "minimal" va "etarli" yig'indisini aniqlash. Ya'ni ushbu bosqichda mavjud faktik ma'lumotlar asosida jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan belgilarni qilmishni kvalifikatsiya uchun ajratib olish zarur.

Birinchi bosqichda quyidagi asosiy uchta savolga javob topish lozim bo'ladi:

1) tahlil asosida tadqiq etilayotgan huquqbuzarliklar jinoyat-huquqiy, ya'ni JK Maxsus qismida jinoyatlarning qat'iy ro'yxatida mavjudmi yoki ular huquqbuzarlikning boshqa turlariga xosmi (ma'muriy, intizomiy, fuqaroviy va boshqalar);

2) mavjud epizod yoki fabulada jinoyat hodisasi, ya'ni ijtimoiy xavfli qilmish haqiqatda mavjudmi;

3. sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat hisoblanadi.

Yuqoridagi savollarga aniq javob topilgach, birinchi bosqich yakunlanadi va albatta taqiqot (jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish mantiq(logika) va JK normalari yig'indisidan iborat) davom ettirilishi lozim bo'ladi.

**Ikkinchi bosqich:** "obyektiv tomon – obyekt" prinsipi qo'llaniladi, ya'ni avval jinoyat obyektini tomoni, so'ng obyektga oid belgilarni aniqlash bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda jinoyat obyektini va obyektiv tomoniga oid belgilar ajratiladi va tizimlashtiriladi.

Ikkinchi bosqichda jinoyat tarkibi obyektiv tomonining belgilariga oid quyidagi asosiy masalalar hal qilinishi lozim bo'ladi:

1) obyektiv tomon tuzilishiga ko'ra jinoyat tarkibi turi(formal, kesik yoki moddiy tarkibli jinoyatlar);

2) ijtimoiy xavfli qilmish shakllari va ularning turlari(ijtimoiy xavfli harakat, harakatsizlik, sof yoki aralash harakatsizlik);

3) ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik) belgilari(ijtimoiy xavflilik, onglilik, irodaviylik ayblilik va murakkab xususiyatlilik);

4) ijtimoiy xavfli oqibat tabiati, turlari(moddiy yoki nomoddiy) va tuzilishi;

5) sababiy bog'lanish turlari(bevosita yoki bilvosita), belgilari va mezonlari;

6) jinoyat obyektiv tomoni fakultativ belgilari – jinoyat sodir etish joyi, vaqti, usuli, holati, quroli va vositasining jinoyat-huquqiy ahamiyati(jinoyat tarkibi zaruriy belgisi – JK Maxsus qismida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan, javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgisi sifatida – JK Maxsus qismi modda og'irlashtiruvchi qismida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilganligi yoki jazoni yengillashtiruvchi

holatlar (JK 55-moddasi) yoki jazoni og‘irlashtiruvchi holatlar (JK 56-moddasi) sifatida nazarda tutilishi)ni aniqlash.

Ushbu bosqichda jinoyat tarkibi obyektini ifodalovchi belgilariga oid quyidagi asosiy masalalar hal qilinishi lozim bo‘ladi:

1) jinoiy tajovuz nimaga qaratilganligini aniqlash;

2) jinoiy tajovuz qaratilgan jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan obyektlarning vertikallik(umumiy obyekt(JK 2-moddasi), maxsus obyekt, turdosh obyekt va bevosita obyekt) va gorizontallik bo‘yicha turlari(bevosita asosiy, bevosita qo‘shimcha yoki bevosita fakultativ obyektlar)ni aniqlash;

3) jinoiy tajovuz qaratilgan jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatning bir elementini, ya‘ni jinoyat predmeti(asosan moddiy dunyo ne‘matlari)ni aniqlash;

4) jinoyat sodir etish quroli va vositasi hamda jinoyat predmetining bir-biriga o‘zgarishini (malasan, bitta jinoyatda o‘q otar qurol ham jinoyat predmeti, ham jinoyat sodir etish quroli sifatida bir-biriga o‘zgarish mexanizmini) aniqlash.

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmidan avval jinoyat tarkibi obyektiv tomonining barcha zaruriy belgilari, obyektiv tomon tuzilishiga ko‘ra jinoyat tarkibi turlari(formal, kesik yoki moddiy tarkibi jinoyat) va jinoyatni tamom bo‘lish payti aniqlanadi va tahlil qilinadi. So‘ngra jinoyat tarkibi obyektiv tomoniga qarab ob‘ekt va unga xos bo‘lgan belgilari(zaruriy belgi sifatida jinoyat qonun bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabat va uning bir elementi bo‘lgan jinoyat predmeti) aniqlanadi. Undan keyin esa aynan jinoyat tarkibi obyektiv tomoniga qarab subyektiv tomon belgilari va subyektga xos bo‘lgan belgilari aniqlanadi.

**Uchinchi bosqich.** Ushbu bosqichda jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisini va jinoyat tarkibining obyektiv belgilarining “minimal” yig‘indisini ifodalovchi belgilar aniqlanadi. Masalan, jinoyat sodir etish usuli – yashirin, ochiqdan-ochiq, aldash yoki ishonchni suiste‘mol qilish yo‘li bilan talon-toroj qilish. Qonun chiqaruvchi JK Maxsus qismi muayyan moddasida jinoyat tarkibi obyektiv va subyektiv belgilarining “minimal” yig‘indisini jinoyatning zaruriy belgisi qilib tanlab oladi va ushbu moddada aks ettiradi.

**To‘rtinchi bosqich.** Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmining so‘ngi to‘rtinchi bosqisi yakuniy bosqich hisolanadi. Ushbu bosqichda jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisini va jinoyat tarkibining subyektiv belgilarining “minimal” yig‘indisini ifodalovchi belgilar aniqlanadi. Jumladan, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda jinoyat sodir etish motivi va maqsadi ham ta‘sir qiladi. Masalan, g‘arazli yoki boshqa past niyatlarda qo‘shmachilik qilish (JK 131-moddasi 1-qismi). G‘arazli yoki boshqa past niyatni qonun chiqaruvchi aynan JK 131-moddasi 1-qismida jinoyat tarkibi subyektiv belgilarining “minimal” yig‘indisida jinoyatning zaruriy belgisi sifatida tanlab olgan va mazkur modda dispozitsiyasida ifodalagan. Ushbu motivsiz qilmish jinoyat hisoblanmaydi. Shuningdek, mazkur bosqichda jinoyat tarkibi subyektiv belgilarining “minimal” yig‘indisida jinoyat subyektiga xos bo‘lgan belgilar, ya‘ni umumiy yoki maxsus subyekt belgilari aniqlanadi. Agar jinoyatda maxsus subyekt belgilari mavjud bo‘lsa, ularni albatta muayyan turlarga ajratish mezonlari(demografik belgilar, fuqarolik, mansabi, harbiy xizmatga aloqadorligi, bajarayotgan ishi, kasbiy majburiyati, shaxs majburiyati, subyektning asosiy holatlari va boshqalar)ni ham tahlil qilgan holda aniqlab ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

Jinoyat subyektiv tomoni belgilarini va aybning shakllari(qasd yoki ehtiyotsizlik)ni aniqlashda albatta jinoyat tarkibi obyektiv tomonini tizimli va tahliliy-sintez qilib aniqlanadi. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmining “obyektiv tomon-ob‘ekt-subyektiv tomon-subyekt” prinsipi(tamoyili) qo‘llanilishi maqsadga muvofiq va samarali hisoblanadi. Amalda ushbu prinsip qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash orqaligina jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish jarayonini muvaffaqiyatli yakunlash mumkin bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqichda talab qilinishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha faktik va formal asoslar quyidagilardan iborat:

1. Jinoyat kodeksi Maxsus qismi moddasidagi dispozitsiya turi qanday;

2. Ko‘rib chiqilayotgan jinoyat ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga ko‘ra jinoyatlar tasnifining qaysi toifasiga mansub;

3. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibining og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiviy) belgilari mavjudmi va ular tarkibning qaysi elementlariga taalluqli;

4. Ko'rib chiqilayotgan holat(keys)ni qaysi belgilari(mezonlari)ga ko'ra o'xshash jinoyat tarkiblaridan farqlash lozim.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning to'rtinchi bosqichi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining muayyan jinoyat-huquqiy normasini (modda, qism, band) ko'rsatish bilan yakunlanadi.

- ko'rib chiqilayotgan holat qaysi belgilarga (mezonlarga) ko'ra quyidagicha bo'ladi jinoyatning turdosh tarkiblaridan farqlash.

Jinoyatni kvalifikatsiya qilishning to'rtinchi bosqichi JK Maxsus qismining muayyan jinoyat-huquqiy normasini (JK Maxsus qismi muayyan moddasining qismi, bandi) tanlash bilan yakunlanadi.

Jinoyat huquqi doktrinasi va jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy asoslari bo'yicha jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi(ketma-ketligi)da jinoyat-huquqiy norma bo'yicha kvalifikatsiya qilish vazifasini bosqicha-bosqich hal etish uchun **quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:**

1. Sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikning faktik va formal(yuridik) asoslarini tashkil etuchi qilmish tarkibi elementlari va ularni ifodalovchi belgilarni tizimli, aniq va to'g'ri tahliliy-sintez qilish lozim;

2. "obyektiv tomon – obyekt" prinsipi qo'llash, ya'ni jinoyat tarkibi obyektiv tomonga qarab obyekt, subyektiv tomon va subyektini ifodalovchi belgilarni tizimli, aniq va to'g'ri tahliliy-sintez qilish kerak;

3. JK Maxsus qismi muayyan moddasi dispozitsiyasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi obyektiv va subyektiv belgilarning "minimal" va "etarli" yig'indisini aniq va to'g'ri tahliliy-sintez qilish lozim;

4. Qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyat tarkibining og'irlashtiruvchi(kvalifikatsiviy) belgilari mavjudmi va ular tarkibning qaysi elementlariga taalluqli ekanligi tizimli, aniq va to'g'ri tahliliy-sintez qilish kerak;

5. Ko'rib chiqilayotgan holat(keys)ni qaysi belgilari(mezonlari)ga ko'ra o'xshash jinoyat tarkiblaridan farqlash lozim.

7. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish algoritmi(ketma-ketligi)da mantiq(logika) va analiz, sintez va modellashtirish oid qoida va prinsip(tamoyil)larni tizimli, aniq va to'g'ri qo'llash lozim bo'ladi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ситдикова Г.З. Аналитическая логистика и алгоритм квалификации преступления // Правовое государство: теория и практика. 2021. №3 (65). – С 158-161., Сабитов Р.А. Теория и практика уголовно-правовой квалификации: науч.-практич. пособие. – М.: Юрлитинформ, 2013. – С. 8. (Sitdikova G.Z. Analytical logistics and algorithm for qualifying a crime // The rule of law: theory and practice. 2021. No. 3 (65). - P. 158-161., Sabitov R.A. Theory and practice of criminal-law qualification: scientific and practical manual. - М.: Yurlitinform, 2013. -- P. 8.)
2. Мисриханова А.А., Магомедова А.М. Квалификация преступлений и ее значение // Закон и право. 2024. №1. – С. 227-230., Кудрявцев В.Н. Общая теория квалификации преступлений. - М.: Изд-во юридической литературы, 2001, - С. 60., Семернёва Н.К. Квалификация преступлений (части Общая и Особенная): научно-практическое пособие. – «Проспект»; «Уральская государственная юридическая академия», 2010 г. – С. 7. (Misri Khanova A.A., Magomedova A.M. Qualification of crimes and its significance // Law and Right. 2024. No. 1. - P. 227-230., Kudryavtsev V.N. General theory of qualification of crimes. - М.: Publishing house of legal literature, 2001, - P. 60., Semerneva N.K. Qualification of crimes (General and Special parts): scientific and practical manual. - "Prospect"; "Ural State Law Academy", 2010. - P. 7.)
3. Нешатаев В.Н, Максимов А.С. Развитие учения о квалификации преступлений // Государственная служба и кадры. 2021. №3. – С. 103-104., Кузнецова Н.Ф. Проблемы квалификации преступлений: Лекции по спецкурсу «Основы квалификации преступлений» / Науч. ред. и педисл. академика В.Н.Кудрявцева. – М.: издательский Дом «Городец», 2007. –

- С. 22., Усмоналиев М., Бакунов П. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм: Дарслик. -Тошкент: Насаф, 2010. – Б. 132. (Neshataev V.N., Maksimov A.S. Development of the doctrine of qualification of crimes // Civil service and personnel. 2021. No. 3. - P. 103-104., Kuznetsova N.F. Problems of qualification of crimes: Lectures on the special course "Fundamentals of qualification of crimes" / Scientific. ed. and ped. academician V.N. Kudryavtsev. - М.: Publishing House "Gorodets", 2007. - P. 22., Usmonaliyev M., Bakunov P. Criminal law. General part: Textbook. -Tashkent: Nasaf, 2010. - P. 132.)
4. Пусурманов Г.В. О правилах квалификации преступлений // Ученые записки Санкт-Петербургского имени В.Б.Бобкова филиала Российской таможенной академии. 2019. № 1 (69). С 96–99., Кудрявцев, В.Н. Общая теория квалификации преступлений / В. Н. Кудрявцев. – 2-е изд., перераб. и дополн. – М.: Юристъ, 2004. – С. 5. (Pusurmanov G.V. On the rules for qualifying crimes // Scientific notes of the V.B. Bobkov St. Petersburg branch of the Russian Customs Academy. 2019. No. 1 (69). P. 96–99., Kudryavtsev, V.N. General theory of qualifying crimes / V.N. Kudryavtsev. – 2nd ed., revised and supplemented. – Moscow: Yurist, 2004. – P. 5.)
5. Храмов, С.М. Алгоритм квалификации преступлений / С.М.Храмов // Теоретико-прикладные вопросы развития досудебного производства по уголовным делам на современном этапе : сб. ст. междунар. науч.-практ. конф., Новополюцк, 26–27 сент. 2019 г. : в 2 т. / Полоц. гос. ун-т ; редкол.: И. В. Вегера (отв. ред) [и др.]. – Новополюцк, 2019. – Т. 1. – С. 223-235. (Khramov, S.M. Algorithm for qualification of crimes / S.M. Khramov // Theoretical and applied issues of development of pre-trial proceedings in criminal cases at the present stage: Coll. Art. Int. Res. and Pract. Conf., Novopolotsk, September 26–27, 2019: in 2 volumes / Polotsk State University; editorial board: I.V. Vegera (editor-in-chief) [et al.]. – Novopolotsk, 2019. – Vol. 1. – Pp. 223–235.)
6. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – B. 104-105. (Rustambayev M.Kh. Criminal law course of the Republic of Uzbekistan. Volume 1. Doctrine of crime. Textbook. 2nd edition, supplemented and revised – T.: Military-technical institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018. – P. 104-105.)
7. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik – Tashkent: Nasaf, 2010. – B. 21, 99, 102. (Usmonaliyev M., Bakunov P. Criminal law. General part: Textbook – Tashkent: Nasaf, 2010. – P. 21, 99, 102.)
8. Благов, Е.В. Применение уголовного права (теория и практика) / Е. В. Благов. – СПб.: Издательство Р. Асланова «Юридический центр Пресс», 2004. – С. 65. (Blagov, E.V. Application of criminal law (theory and practice) / E. V. Blagov. - St. Petersburg: R. Aslanov's Publishing House "Legal Center Press", 2004. - P. 65.)
9. Surxondaryo viloyati sud-tergov arxivi materiallaridan. 2025 yil. (From the materials of the Surkhandarya regional judicial investigation archive. 2025.)
10. Samarqand viloyati sud-tergov arxivi materiallaridan. 2024 yil. (From the materials of the Samarkand regional judicial investigation archive. 2024.)
11. Toshkent viloyati sud-tergov arxivi materiallaridan. T. 2025 yil. (From the materials of the Tashkent regional forensic archive. T. 2025.)

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000